



SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SAMARQAND VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI *2024-yil yanvar-iyun*



SAMARQAND VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

(2024-yil 1-iyul holatiga, dastlabki ma'lumotlar)

Samarqand viloyatining doimiy aholisi soni 2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra **4 249,1** ming kishini tashkil etib, yil boshidan **40,6** ming kishiga yoki **1,0** foizga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **1 555,9** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **36,6 %**), qishloq aholisi soni **2 693,2** ming kishi (**63,4 %**)ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni

4 249,1 ming kishi

Tabiiy o'sish

+41,5 ming kishi

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

Shahar




36,6 %

Qishloq



63,4 %

Aholining tabiiy harakati, ming kishi




Samarqand viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar

(2024-yil yanvar-iyun)




Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni

(2024-yil 1-iyul holatiga)




2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra, viloyat doimiy aholisining mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar soni **33,9 %**, mehnatga layoqatli yoshdagilari **55,1 %** va mehnatga layoqatli yoshdan kattalari **11,0 %** hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Yosh guruhlari va jinsi bo'yicha aholi tarkibi (2024-yil 1-yanvar holatiga)




2024-yil 1-yanvar holatiga Samarqand viloyatining doimiy aholisi tarkibini jinsi va yosh guruhlari bo'yicha (65 yoshgacha bo'lganlar 5 yillik yosh intervalida, 65 va undan yuqori yoshdagilar esa jamlangan holda) tahlil qilinganda, erkaklar tarkibida 4 yoshgacha bo'lgan bolalar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni **270,7 ming kishini** tashkil etgan. Erkaklar tarkibida eng kam aholi soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelib **72,2 ming kishini** tashkil etdi. Shuningdek, ayollar tarkibida ham 4 yoshgacha bo'lgan qizlar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni **251,4 ming kishini** tashkil etgan bo'lsa, eng kam ayollar soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelgan, ya'ni **81,2 ming kishini** tashkil etgan.

Tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi (2024-yil 1-yanvar holatiga)



2024-yilning 1-yanvar holatiga Samarqand viloyati aholisining kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish davomiyligi **74,0** yoshni tashkil etgan. Erkaklar uchun **71,6** yoshga, ayollar uchun esa **76,3** yoshga teng. Shahar joylari **76,4** yosh, qishloq joylari uchun kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish davomiyligi **71,8** yoshni tashkil etgan.

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2024-yil 1-iyul holatiga)




Doimiy aholi sonining shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi

1-iyul holatiga, ming kishi

	2023-yil	2024-yil	O'sish sur'ati, % da
Viloyat bo'yicha	4 158,8	4 249,1	102,2
Samarqand sh.	579,3	590,5	101,9
Kattaqo'rg'on sh.	94,3	95,3	101,1
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	171,1	175,0	102,3
Bulung'ur	199,5	204,4	102,5
Jomboy	187,1	191,7	102,5
Ishtixon	272,6	278,7	102,2
Kattaqo'rg'on	290,4	296,4	102,1
Qo'shrabot	140,3	143,2	102,1
Narpay	225,0	229,2	101,9
Payariq	269,7	276,3	102,4
Pastdarg'om	378,3	387,0	102,3
Paxtachi	151,0	153,3	101,5
Samarqand	270,0	275,7	102,1
Nurobod	160,6	163,8	102,0
Urgut	551,5	565,2	102,5
Toyloq	218,1	223,4	102,4


Samarqand viloyati bo'yicha aholi zichligi (2024-yil 1-iyul holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi)




Samarqand viloyatida 2024-yil 1-iyul holatiga 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **253,4** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **5,4** kishiga ortgan (2023-yilda 1 kv.km.ga **248,0** kishi).

Shahar va tumanlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichligining eng yuqori ko'rsatkichi Kattaqo'rg'on shahrida **9 530,0** kishi, Samarqand shahrida **4 920,8** kishi, Toyloq tumanida **797,9** kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Nurobod tumani **33,7** kishi, Qo'shrabot tumani **66,3** kishi, Paxtachi tumani **111,1** kishini tashkil etgan.


Samarqand viloyati bo'yicha aholi zichligi dinamikasi (1-yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi)



QAYD ETILGAN TUG'ILISHLAR



Tug'ilganlarning oylar kesimida taqsimlanishi



Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (2024-yil yanvar-iyun, kishi)

Urgut	26,4 ‰	7 391
Samarqand sh.	21,1 ‰	6 163
Pastdarg'om	22,9 ‰	4 387
Payariq	26,3 ‰	3 599
Kattaqo'rg'on	24,0 ‰	3 516
Ishtixon	25,1 ‰	3 467
Samarqand	23,3 ‰	3 171
Toyloq	25,8 ‰	2 846
Bulung'ur	27,0 ‰	2 724
Narpay	21,7 ‰	2 462
Jomboy	25,9 ‰	2 456
Oqdaryo	24,2 ‰	2 096
Qo'shrabot	25,5 ‰	1 807
Paxtachi	22,7 ‰	1 727
Nurobod	20,6 ‰	1 669
Kattaqo'rg'on sh.	18,6 ‰	879



2024-yil yanvar-iyun oylarida **50,4** mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **23,9** promilleni tashkil etdi hamda bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan **1,4** promillega kamayganligi kuzatildi (2023-yilda **25,3** promilleni tashkil etgan).

VAFOT ETGANLAR



Vafot etganlarning oylar kesimida taqsimlanishi

Aprel

1 404 kishi

Erkaklar

775

Ayollar

629



55,2 %

44,8 %

May

1 452 kishi

Erkaklar

843

Ayollar

609



58,1 %

41,9 %

Iyun

1 586 kishi

Erkaklar

875

Ayollar

711



55,2 %

44,8 %


Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti (2024-yil yanvar-iyun, kishi)

Samarqand sh.	1 516	5,2 ‰
Urgut	1 034	3,7 ‰
Pastdarg'om	745	3,9 ‰
Kattaqo'rg'on	606	4,1 ‰
Payariq	603	4,4 ‰
Samarqand	542	4,0 ‰
Ishtixon	494	3,6 ‰
Narpay	485	4,3 ‰
Bulung'ur	457	4,5 ‰
Toyloq	454	4,1 ‰
Jomboy	379	4,0 ‰
Oqdaryo	367	4,2 ‰
Paxtachi	361	4,8 ‰
Nurobod	329	4,1 ‰
Qo'shrabot	297	4,2 ‰
Kattaqo'rg'on sh.	236	5,0 ‰

2024-yilning yanvar-iyun oylarida **8,9** mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti **4,2** promilleni tashkil etgan (2023-yilning yanvar-iyun oylarida **4,4** promille bo'lgan).


O'limning asosiy sabablar bo'yicha taqsimlanishi

(2024-yil yanvar-iyun, kishi)



2024-yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan o'lim holatining **55,7** foizi – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **7,4** foizi – o'simtalardan, **5,3** foizi – nafas olish a'zolari kasalliklaridan, **5,2** foizi – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **4,7** foizi – ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, **0,9** foizi – yuqumli va parazitlar kasalliklaridan, **20,8** foizi boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

QAYD ETILGAN NIKOHLAR



Nikohlarning oylar kesimida taqsimlanishi

Aprel
1 398 ta

Shahar
583



41,7 %

Qishloq
815



58,3 %

Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti (2024-yil yanvar-iyun, birlik)

Urgut	1 475	5,3 ‰
Samarqand sh.	1 265	4,3 ‰
Pastdarg'om	975	5,1 ‰
Payariq	745	5,5 ‰
Kattaqo'rg'on	716	4,9 ‰
Ishtixon	693	5,0 ‰
Samarqand	623	4,6 ‰
Toyloq	577	5,2 ‰
Narpay	533	4,7 ‰
Bulung'ur	476	4,7 ‰
Jomboy	459	4,8 ‰
Oqdaryo	433	5,0 ‰
Paxtachi	395	5,2 ‰
Nurobod	337	4,2 ‰
Qo'shrabot	276	3,9 ‰
Kattaqo'rg'on sh.	219	4,6 ‰

May
1 626 ta

Shahar
580



35,7 %

Qishloq
1 046



64,3 %

Iyun
1 983 ta

Shahar
795




40,1 %

Qishloq
1 188


59,9 %

2024-yilning yanvar-iyun oylarida **10,2** mingta nikoh qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **4,8** promilleni tashkil etgan hamda 2023-yilga nisbatan **0,2** promillega kamayganligi kuzatildi (2023-yilning yanvar-iyun oylarida **5,0** promille bo'lgan).

NIKOHDAN AJRALISHLAR





Nikohdan ajralishlarning oylar kesimida taqsimlanishi




Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti (2024-yil yanvar-iyun, birlik)

Samarqand sh.	440	1,5 ‰
Pastdarg'om	212	1,1 ‰
Urgut	202	0,7 ‰
Payariq	159	1,2 ‰
Samarqand	157	1,2 ‰
Kattaqo'rg'on	143	1,0 ‰
Ishtixon	133	1,0 ‰
Narpay	133	1,2 ‰
Oqdaryo	120	1,4 ‰
Toyloq	111	1,0 ‰
Paxtachi	107	1,4 ‰
Bulung'ur	104	1,0 ‰
Jomboy	79	0,8 ‰
Kattaqo'rg'on sh.	71	1,5 ‰
Nurobod	49	0,6 ‰
Qo'shrabot	45	0,6 ‰




2024-yil yanvar-iyun oylarida 2,3 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti 1,1 promilleni tashkil etgan hamda 2023-yilga nisbatan 0,1 promillega kamayganligi kuzatildi (2023-yil yanvar-iyun oylarida 1,2 promille bo'lgan).

Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi (2024-yil yanvar-iyun)



2024-yil yanvar-iyun oylarida viloyatda jami nikohdan ajrashganlarning **48,0** foizi farzandsiz, **25,3** foizi bitta farzand bilan va **26,7** foizi ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.

Nikohdan ajrashganlar soni va koeffitsiyenti



Viloyat bo'yicha nikohdan ajrashganlarning soni 2024-yilning yanvar-iyun oylarida **2 265** kishini, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,1** promilleni tashkil etgan.

AHOLI MIGRATSIYASI

(Doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar)

2024-yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar soni 7 164 kishini tashkil etdi.

Doimiy yashash maqsadida ko'chib ketganlar soni 8 059 kishini, migratsiya saldosi minus 895 kishini tashkil etdi. (2023-yil yanvar-iyun oylarida minus 2 307 kishini tashkil etgan).

Shahar va tumanlar bo'yicha ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni (yanvar-iyun)

(kishi)

	2023-yil			2024-yil		
	Ko'chib kelganlar	Ko'chib ketganlar	Migratsiya saldosi	Ko'chib kelganlar	Ko'chib ketganlar	Migratsiya saldosi
Viloyat bo'yicha:	5 740	8 047	-2 307	7 164	8 059	-895
Samarqand sh.	2 749	1 396	1353	2 235	1 610	625
Kattaqo'rg'on sh.	224	303	-79	237	466	-229
<i>tumanlar:</i>			0			
Oqdaryo	268	309	-41	389	279	110
Bulung'ur	172	402	-230	549	384	165
Jomboy	179	246	-67	254	218	36
Ishtixon	200	579	-379	258	451	-193
Kattaqo'rg'on	213	558	-345	347	593	-246
Qo'shrabot	178	526	-348	230	391	-161
Narpay	141	430	-289	229	459	-230
Payariq	268	717	-449	545	592	-47
Pastdarg'om	257	486	-229	476	451	25
Paxtachi	178	590	-412	316	686	-370
Samarqand	367	394	-27	619	412	207
Nurobod	68	271	-203	157	309	-152
Urgut	123	674	-551	183	554	-371
Toyloq	155	166	-11	140	204	-64

Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayiriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Ko‘chib kelganlar soni – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib kelish.

Ko‘chib ketganlar soni – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

Aholining migratsion o‘sishi (farqi) – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limi

Tel: 66-235-72-35